



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.12.2024 yildagi 836-son

Кучга кириш санаси

18.12.2024

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORIOLIJ VA KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINING YAKUNIY DAVLAT
ATTESTATSIYASINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ish beruvchi korxona va tashkilotlarni ta'lim jarayoniga jalb etish hamda oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. 2025-yil 1-yanvardan boshlab oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini (keyingi o'rinlarda — attestatsiya) ish beruvchi korxona va tashkilotlarda ham tashkil etish amaliyoti joriy qilinsin.

2. Quyidagilar:

Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

Kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

diplom loyihasi hamda bitiruv malakaviy ishi himoya qilinadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati ta'lim sohalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Bunda diplom loyihasi va bitiruv malakaviy ishi himoya qilinmaydigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilariga ularning xohishidan kelib chiqib, diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi himoya qilinishiga ruxsat beriladi;

yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi a'zoliciga jalb etilgan mutaxassislarga qonunchilik hujjatlariga muvofiq mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlari asosida haq to'lanadi hamda ularning asosiy ish joylaridagi ish haqlari saqlab qolinadi;

kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari kompetensiyasini ko'rgazmali-amaliy imtihon shaklida baholashda talab etiladigan xomashyo va yonilg'i moylash materiallarini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar tegishli ta'lim tashkilotlariga respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar, to'lov-kontrakt hamda budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

4. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

ish beruvchi korxona va tashkilotlarni oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bilimi, ko'nikmasi va malakasini baholash jarayonlariga faol jalb etsin;

oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining attestatsiyasini tashkil etishda ish beruvchi korxona va tashkilotlarga har tomonlama uslubiy jihatdan ko'maklashsin hamda ularning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirib borsin;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida attestatsiyani tashkil etishdan kamida bir oy oldin Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar takliflari asosida bitiruvchilarning attestatsiyasi o'tkaziladigan korxona va tashkilotlar hamda ta'lim tashkilotlari ro'yxatini tasdiqlasin va e'lon qilsin;

2025-yil 1-yanvardan boshlab kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining malakasini oshirish o'quv rejalariga "Germaniya tajribasi" asosida bitiruvchilarni baholash bo'yicha o'quv kursini kiritsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari: har o'quv yili yakunida oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan attestatsiyaga ish beruvchi korxona va tashkilotlar vakillari jalb etilishiga ko'maklashsin;

har yili 1-noyabrga qadar kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko'rgazmali-amaliy imtihonlari o'tkaziladigan tashkilotlar bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga takliflar kiritsin.

6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2024-yil 13-dekabr,
836-son

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-
dekabrdagi 836-son qaroriga
1-ILOVA

Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bitiruvchi — tegishli o'quv rejasidagi fanlarni o'zlashtirgan, o'qish davrida to'plashi lozim bo'lgan kreditlarni to'liq to'plagan va amaliyotlarni muvaffaqiyatli yakunlagan oliy ta'lim tashkiloti talabasi;

bitiruv malakaviy ishi — oliy ta'lim tashkiloti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari tomonidan o'qishni yakunlash bosqichida bajariladigan ilmiy-nazariy ish bo'lib, unda bitiruvchining tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha egallagan bilimi, ko'nikma va malakasi baholanadi;

diplom loyihasi — bakalavriat bosqichi bitiruvchisi tomonidan o'qishni yakunlash bosqichida bajariladigan hamda muayyan soha vazifalariga oid aniq masalaning kompleks yechimiga (konstruktorlik, texnologik, ijodiy, eksperimental, badiiy) qaratilgan ish;

magistrlik dissertatsiyasi — magistratura bosqichi bitiruvchisi tomonidan o'quv jarayoni davomida bajariladigan, tegishli mutaxassislikka (sohaga) oid aniq ilmiy-amaliy masalaning (muammoning) yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishi;

ratsionalizatorlik g'oyasi — mavjud jarayon, ishlash usuli yoki mahsulotni takomillashtirishga qaratilgan yangi va samarali taklif;

startup loyihasi — innovatsion g'oyaga asoslangan yangi biznes tashabbusi bo'lib, u ilgari bozorda taqdim etilmagan yoki mavjudlaridan sezilarli darajada farq qiladigan noyob mahsulot yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha taklif;

plagiat — boshqa shaxsning ilmiy, ijodiy yoki boshqa turdagi ishlarini o'zlashtirib, o'z nomidan taqdim etish;

yakuniy davlat attestatsiyasi (keyingi o'rinlarda — attestatsiya) — bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholash jarayoni;

yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda — komissiya) — bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholovchi soha mutaxassislaridan iborat komissiya.

3. Attestatsiya oliy ta'lim tashkilotidagi har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi (keyingi o'rinlarda — ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik) bo'yicha tashkil etiladigan komissiya tomonidan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) o'tkazilishi mumkin.

4. Diplom loyihasi hamda bitiruv malakaviy ishi himoya qilinadigan ta'lim yo'nalishlari ro'yxati ta'lim sohalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Attestatsiya quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

xorijiy til bo'yicha (oliy ta'lim tashkiloti Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin) sinov;

maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy fanlar, tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari uchun ikki bosqichli klinikoldi va klinik fanlar) bo'yicha sinov;

bitiruv malakaviy ishi himoyasi;

diplom loyihasi himoyasi;

magistrlik dissertatsiyasi himoyasi;

ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikka mos "startup" loyihasi hamda ratsionalizatorlik g'oyasi taqdimoti. Bunda:

"startup" loyihasi muallifi (hammuallifi) o'qish davrida (bakalavriat yoki magistratura) tegishli davlat organi tomonidan e'lon qilingan tanlov yakunlariga ko'ra g'olib deb topilgan bo'lishi;

ratsionalizatorlik g'oyasi muallifi (hammuallifi) tomonidan taklif etilgan g'oya o'qish davrida (bakalavriat yoki magistratura) kamida uchta korxona (tashkilot) tomonidan amaliyotga joriy qilingan va uning iqtisodiy yoki ijtimoiy samara berganligi bo'yicha mazkur korxona (tashkilot) tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.

6. Zaruratga ko'ra, xorijiy til bo'yicha attestatsiya oliy ta'lim tashkiloti Kengashining qaroriga muvofiq o'tkaziladi.

Bunda xorijiy til bo'yicha kamida B2 darajadagi (filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida C1 darajadagi) milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bitiruvchilar xorijiy til bo'yicha attestatsiyadan ozod etiladi.

Xorijiy til bo'yicha attestatsiya mazkur fanning o'quv dasturlarida nazarda tutilgan materiallarning bitiruvchi tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

7. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik bo'yicha maxsus (majburiy) fanlardan (kasbiy-amaliy, klinikoldi va klinik fanlardan) attestatsiya fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, malaka talablarida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

2-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi

8. Komissiya o'z faoliyatini mazkur Nizom talablariga muvofiq amalga oshiradi.

9. Komissiya raisligiga nomzodlar ro'yxati tegishli kafedra mudiri tomonidan shakllantiriladi hamda tasdiqlash uchun oliy ta'lim tashkiloti rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

10. Komissiya raislari oliy ta'lim tashkilotining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim tashkilotida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarish sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan tegishli oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir kalendar yili muddatiga tasdiqlanadi.

Komissiyaning tarkibi oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan kamida bir oy oldin tasdiqlanadi.

Komissiya kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan iborat tarkibda shakllantiriladi hamda uning uchdan ikki qismi qatnashganda, vakolatli hisoblanadi.

Bunda komissiya tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagog kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, kadrlar buyurtmachisi bo'lgan korxonalarning (tashkilotlarning) yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, sohaning ilg'or mutaxassislari va olimlaridan iborat bo'ladi.

Bir kishining ketma-ket bir oliy ta'lim tashkilotida ikki martadan ortiq komissiya raisi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Komissiya a'zoliciga jalb etilgan mutaxassislarga qonunchilik hujjatlariga muvofiq mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlari asosida haq to'lanadi hamda ularning asosiy ish joylaridagi ish haqlari saqlab qolinadi.

11. Quyidagilar komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

bitiruvchining bilim, ko'nikma va malaka darajasining tegishli ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik malaka talablariga muvofiqligini kompleks baholash;

attestatsiya natijalari bo'yicha bitiruvchilarga tegishli akademik darajasini berish bo'yicha qaror qabul qilish;

faoliyat natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

12. Attestatsiyada oliy ta'lim tashkilotining Vasiylik (Kuzatuv, Boshqaruv) kengashi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Attestatsiya jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslyatsiya qilinadi hamda ushbu videotasvirlar bir yil davomida tegishli kafedrada saqlanadi.

13. Zarurat bo'lganda, bitta rais rahbarligida bir nechta attestatsiya komissiyalari tuziladi.

Attestatsiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bitiruvchilarining attestatsiyasi ushbu oliy ta'lim tashkilotining yuqori turuvchi vazirligi (idorasi) ruxsati bilan tashkil etiladigan attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

3-bob. Attestatsiyani o'tkazish tartibi

14. Bitiruvchilar ushbu Nizomga [ilovadagi](#) sxemaga muvofiq attestatsiyadan o'tkaziladi.

15. Attestatsiyaga tegishli fanlarni o'zlashtirgan, belgilangan kreditlarni to'plagan hamda to'lov-kontrakt shartlarini to'liq bajargan bitiruvchilar qo'yiladi.

Bitiruvchilar o'quv yuklamalarini to'liq bajargandan so'ng attestatsiyadan o'tishi majburiy hisoblanadi.

16. Bitiruvchilarning maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy, klinikoldi va klinik fanlar) bo'yicha attestatsiyasi, diplom loyihasi (bitiruv malakaviy ishi) yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi oliy ta'lim tashkiloti yoxud korxonada (tashkilotda) tashkil etiladi.

17. Oliy ta'lim tashkiloti Kengashi har yili 31-oktabrga qadar attestatsiya oliy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) tashkil etiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga mos maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy, klinikoldi va klinik fanlar) ro'yxatini tasdiqlaydi va attestatsiyadan kamida olti oy oldin oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

Oliy ta'lim tashkiloti o'z bitiruvchilarining attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan mos korxonalar (tashkilotlar) bilan hamkorlik shartnomasini har yili noyabr oyida imzolaydi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklarning attestatsiyasi korxonada (tashkilotda) tashkil etilganda bitiruvchilar va komissiyani zarur jihozlar, o'lchov vositalari, texnik hujjatlar, xomashyo va materiallar bilan ta'minlashga korxona (tashkilot) rahbarlari mas'ul hisoblanadi.

18. Attestatsiyada xorijiy til va maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha sinovlar yozma yoki test yoxud og'zaki shaklda tashkil etiladi. Attestatsiya alohida iqtidor talab etiladigan va tibbiyot ta'lim sohasi uchun amaliy shaklda ham tashkil etilishi mumkin.

Xorijiy til va maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha o'tkaziladigan sinovlar shakli oliy ta'lim tashkiloti Kengashining qarori asosida ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda attestatsiya boshlanishidan olti oy oldin bitiruvchilar e'tiboriga yetkaziladi.

Bitiruv malakaviy ishining mavzulari bitiruv semestri boshlanguniga qadar oliy ta'lim tashkiloti Kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

Bitiruvchilar attestatsiyadan oldin tegishli fanlar bo'yicha dasturlar bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

19. Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tajribali professor-o'qituvchilar hamda korxonalarning (tashkilotlarning) mutaxassislarini jalb etgan holda, attestatsiyaning dasturlari attestatsiya boshlanishidan kamida uch oy oldin ishlab chiqilib, oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

20. Attestatsiya o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda, fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy ishlarga mas'ul tarkibiy bo'linma (bo'lim, boshqarma) tomonidan tayyorlangan hamda oliy ta'lim tashkiloti o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan attestatsiya jadvali asosida o'tkaziladi.

21. Oliy ta'lim tashkiloti Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan attestatsiyaning shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

22. Attestatsiya boshlanishidan ikki hafta oldin komissiya raisi bilan oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) komissiya tayyorgarlik darajasi, komissiya raisi va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazadi.

23. Attestatsiya komissiya ochiq majlislarida o'tkaziladi.

24. Bitiruvchilar attestatsiya boshlangan kundan ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikka mos "startap" loyihasi, ratsionalizatorlik g'oyasi bo'yicha tegishli hujjatlarni (taqdimotni) komissiyaga taqdim etishlari lozim.

Bunda komissiya tomonidan "startap" loyihasi va ratsionalizatorlik g'oyasini tegishli hujjatlar belgilangan talablarga mos kelishi bo'yicha xulosa qilinadi hamda bitiruvchi belgilangan tartibda baholanadi.

Belgilangan talablarga mos kelmagan "startap" loyihasi yoki ratsionalizatorlik g'oyasi baholanmaydi va bitiruvchi attestatsiyani qayta topshirishga qoldiriladi.

25. Attestatsiyada plagiatga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda, attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiyadan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi himoyadan ikki hafta oldin antiplagiat dasturi asosida tekshiriladi va plagiatga yo'l qo'yilganligi aniqlansa, takroran bir marotaba qayta tekshirishdan o'tkazishga ruxsat beriladi. Ikkinchi marotaba ham plagiat holatlari bartaraf etilmagan taqdirda, attestatsiya keyingi yilga qoldiriladi.

Bunda plagiat holatlari bartaraf etilgan taqdirda, bitiruvchiga attestatsiyada qatnashishga ruxsat beriladi.

Oliy ta'lim tashkilotida o'rnatiladigan antiplagiat dasturi oliy ta'lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xarid qilinadi va u quyidagi talablarga javob berishi talab etiladi:

O'zbekiston Respublikasining "[Kiberxavfsizlik to'g'risida](#)"gi va "[Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida](#)"gi qonunlari talablariga javob berishi;

o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz va boshqa tillardagi matnlarni plagiatga tekshirish imkoniyatining mavjudligi;

foydalanuvchi uchun tizimning kamida o'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida yo'riqnomasi mavjudligi;

ko'chirilgan ma'lumotlar qaysi manbalardan olinganini aniq ifodalab bera olishi;

ishlardagi ma'lumotlarni bilvosita, ya'ni mazmuni o'zgartirilmasdan so'z va iboralar almashtirilib bayon qilingan matnlardagi ko'chirmachilikni aniqlash tizimi joriy etilganligi;

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida generatsiya qilinadigan matnlarni aniqlash imkoniyatining mavjudligi;

xalqaro e'tirof etilgan bazalar bilan bog'langanligi, ma'lumotlar bazasida turli tillardagi manbalar, jumladan, maxsus ma'lumotlar bazalari, xalqaro ilmiy nashriyotlar, kutubxonalar to'plamlarining mavjudligi;

milliy ilmiy nashrlar bazasiga va zarur hollarda boshqa tizimlarga integratsiya qilish imkoniyatining mavjudligi;

ishlarni tekshirish natijasida matn tahliliga doir to'liq hisobotni va belgilangan namunadagi xulosani (sertifikatni) taqdim etish imkoniyatining mavjudligi.

26. Attestatsiyada bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

27. Attestatsiya natijalari attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida bitiruvchilarga e'lon qilinadi.

28. Attestatsiyada bitiruvchi qoniqarsiz baho bilan baholanganda bitiruvchiga diplom berilmaydi hamda attestatsiyani mazkur Nizomga muvofiq qayta topshiradi.

29. Komissiya bitiruvchilarga attestatsiyaning ijobiy natijalari asosida bakalavr (magistr) darajasini berish haqida qaror qabul qiladi.

Komissiyaning qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

30. Oliy ta'lim tashkiloti bitiruvchisi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng bir oy muddat ichida unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

O'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida to'rt dan uch qismi bo'yicha "5" (a'lo) baho (90 — 100 ball) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi "4" (yaxshi) bahodan (70 — 89,9 ball) kam bo'lmagan), shuningdek, attestatsiyadan "5" (a'lo) baho (90 — 100 ball) ko'rsatkichiga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

31. Attestatsiyadan o'ta olmagan yoki attestatsiyaga qo'yilmagan bitiruvchi o'qish muddati tugagandan so'ng, uning arizasiga muvofiq attestatsiyani keyingi uch yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchidan attestatsiyani qayta topshirish jarayonlarida to'lov undirilmaydi.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchi keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin attestatsiyani qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qiladi. Bunda bitiruvchiga attestatsiyani keyingi har bir o'quv yilida (uch yil davomida) ikki martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Attestatsiyani qayta topshirishga oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan ruxsat beriladi.

32. Attestatsiyadan keyingi uch yil davomida qayta o'ta olmagan bitiruvchiga akademik ma'lumotnoma beriladi va u belgilangan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanadi.

33. Uzrli sabab bilan attestatsiyaga kelmagan bitiruvchilar oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan komissiyaning ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan attestatsiyaga kiritiladi.

34. Komissiyaning ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim tashkiloti Kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Kengash yig'ilishiga komissiya raisi taklif qilinadi.

4-bob. Attestatsiyani baholash natijalari yuzasidan shikoyat qilish tartibi

35. Attestatsiya natijasi bo'yicha olgan bahosidan norozi bo'lgan bitiruvchilar arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, tegishli soha bo'yicha korxonalarning (tashkilotlarning) malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining tajribali professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda komissiya ishida ishtirok etgan komissiya a'zolari kiritilmaydi.

36. Attestatsiyada qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar attestatsiya baholari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega.

37. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni bir kun ichida ko'rib chiqadi hamda natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- shikoyatni asosli deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish to'g'risida;
- shikoyatni asossiz deb hisoblash hamda uni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida.

38. Apellyatsiya komissiyasi qabul qilgan qarori nusxasini shu kunning o'zida bitiruvchiga taqdim qiladi.

39. Bitiruvchi komissiyaning shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilgan qarori yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

5-bob. Yakunlovchi qoida

40. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining XVI bobi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XV bobi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312 — 315-moddalari.

Oliy ta'lim tashkilotlari
bitiruvchilarining yakuniy davlat
attestatsiyasini o'tkazish tartibi
to'g'risida **nizomga**
ILOVA

Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddatlari

1-bosqich	Oliy ta'lim tashkiloti	1. Attestatsiya oliy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) tashkil etiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga mos maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy, klinikoldi va klinik fanlar) ro'yxatini tasdiqlaydi. 2. Bitiruvchilarni attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan korxonalar (tashkilotlar) bilan hamkorlik shartnomasini imzolaydi. 3. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikka mos maxsus (majburiy) fanlar ro'yxatini oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi. 4. Xorijiy til va maxsus (majburiy) fanlar bo'yicha o'tkaziladigan sinovlar shaklini belgilaydi hamda talabalar e'tiboriga yetkazadi. 5. Attestatsiyaning dasturlarini ishlab chiqadi va oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi. 6. Komissiyaning tarkibini tasdiqlaydi. 7. Bitiruv malakaviy ishi mavzularini tasdiqlaydi. 8. Bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasini antiplagiat dasturi asosida tekshiradi. Attestatsiya komissiyasi raisi bilan komissiyaning tayyorgarlik darajasi, komissiya raisi va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazadi.	Har yili 31-oktabrga qadar Har yili noyabr oyida Attestatsiyadan kamida olti oy oldin Attestatsiyadan olti oy oldin Attestatsiyadan uch oy oldin Bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin Bitiruv semestri boshlanguniga qadar Attestatsiyadan ikki hafta oldin
2-bosqich	Attestatsiya komissiyasi	1. Attestatsiyani oliy ta'lim tashkilotidagi har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik bo'yicha o'tkazadi. 2. Attestatsiyada bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi va e'lon qilinadi.	O'quv jarayoni jadvaliga muvofiq Attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida
3-bosqich	Oliy ta'lim tashkilotlari	Bitiruvchi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.	Attestatsiya o'tkazilgandan boshlab bir oy muddat ichida

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi 836-son qaroriga 2-ILOVA

Kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini (keyingi o'rinlarda — attestatsiya) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bitiruvchi — tegishli o'quv rejasidagi fanlarni o'zlashtirgan va amaliyotlarni muvaffaqiyatli yakunlagan kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchisi;

davlat imtihoni — kasbiy ta'lim tashkiloti bitiruvchisining kasbiy (mutaxassislik) va/yoki belgilangan fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini baholash jarayoni;

ko'rgazmali-amaliy imtihon — kasbiy ta'lim tashkiloti bitiruvchisining bilimi, ko'nikma va malakalarini amaliy topshiriqlar asosida baholash jarayoni;

yakuniy davlat attestatsiyasi (keyingi o'rinlarda — attestatsiya) — kasbiy ta'lim tashkiloti bitiruvchisining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholash jarayoni;

yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi — kasbiy ta'lim tashkilotlarida bitiruvchilarni bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash maqsadida kasblar (mutaxassisliklar) bo'yicha korxona (tashkilot) vakillari hamda soha mutaxassislaridan tuziladigan komissiya.

3. Attestatsiyaning asosiy maqsadi kasbiy ta'lim tashkiloti bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini (kasbiy kompetensiyalarini) kasblarning (mutaxassisliklarning) ta'lim dasturlariga muvofiqligini kompleks baholashdan iborat.

4. Attestatsiya davlat imtihonlari va ko'rgazmali-amaliy imtihonlar shaklida o'tkaziladi.

5. Davlat imtihonlari:

boshlang'ich kasbiy ta'lim bo'yicha — O'zbekiston tarixi fani va kasbiy fanlardan test shaklida;

o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim bo'yicha — kasbiy fanlardan test shaklida o'tkaziladi.

Kasbiy fanlarga o'quv rejasidagi umumkasbiy fanlar, maxsus fanlar yoki mutaxassislik fanlari kiradi.

6. Ko'rgazmali-amaliy imtihonda bitiruvchi kasbiy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) tegishli kasb (mutaxassislik) bo'yicha kompetensiyalarni egallaganlik darajasini amaliy topshiriqlarni bajarish orqali ko'rsatib beradi.

7. Dual ta'lim shaklida ta'lim olgan bitiruvchilarning ko'rgazmali-amaliy imtihon jarayonlari dual ta'lim tashkil etilgan korxona (tashkilot) tomonidan tashkil etiladi.

Bunda korxona (tashkilot) tomonidan bitiruvchilarning ko'rgazmali-amaliy imtihon natijalari yuzasidan tayyorlangan hisobotlar kasbiy ta'lim tashkilotiga taqdim etiladi.

8. Attestatsiyani o'tkazish jadvali korxonalar (tashkilotlar) bilan kelishilgan holda attestatsiya boshlanishidan kamida o'ttiz kun oldin kasbiy ta'lim tashkiloti direktori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Attestatsiyani o'tkazish jadvali kasbiy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-sayti yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasi orqali e'lon qilinadi.

9. Davlat imtihonlari kasblarning (mutaxassisliklarning) o'quv dasturlarida nazarda tutilgan materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga qaratiladi.

2-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi

10. Attestatsiya kasbiy ta'lim tashkilotidagi kasblar (mutaxassisliklar) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda — komissiya) tomonidan o'tkaziladi.

11. Attestatsiyani o'tkazish uchun kasblar (mutaxassisliklar) bo'yicha komissiyalar kasbiy ta'lim tashkilotidagi o'quvchilar soniga muvofiq tashkil etiladi.

12. Komissiya tarkibi attestatsiya boshlanishidan kamida bir oy oldin Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlari buyrug'i bilan bir o'quv yiliga tasdiqlanadi.

Komissiyaning tarkibi kamida 5 nafardan iborat bo'lib, uning uchdan ikki qismi qatnashganda, vakolatli hisoblanadi.

Komissiya tarkibining kamida 50 foizi korxonalar (tashkilotlar) vakillaridan iborat bo'ladi.

13. Komissiya har yili attestatsiyani o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish davridan boshlab keyingi o'quv yili boshlangunga qadar faoliyat ko'rsatadi.

Bitiruvchi guruhlar soniga qarab, komissiya faoliyati yil davomida tashkil etilishi mumkin.

14. Komissiya raisi komissiya faoliyatini tashkil qiladi, nazorat qiladi, uning xulosalari va qarorlarini imzolaydi.

Komissiya raisi attestatsiyani o'z vaqtida, sifatli va shaffof o'tkazilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Bir kishi ketma-ket bir kasbiy ta'lim tashkilotida tegishli kasblar (mutaxassisliklar) bo'yicha ikki martadan ortiq komissiya raisi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Attestatsiya ishida korxonalar (tashkilotlar) a'zolari ishtirok etganda, ularning asosiy ish joyidagi ish haqi saqlanib qoladi.

16. Komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakasini (kasbiy kompetensiyalarini) kasblarning (mutaxassisliklarning) ta'lim dasturlari talablariga muvofiqligini kompleks baholash;

attestatsiya natijalari bo'yicha bitiruvchilarga boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim darajasini berish masalasini hal etish;

komissiyaning yakuniy hisobotlari va xulosalarini tayyorlash;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

17. Kasblarning (mutaxassisliklarning) tegishli o'quv dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchilarga attestatsiyada ishtirok etishlariga ruxsat beriladi.

18. O'zbekiston tarixi fanidan o'tkaziladigan davlat imtihoni soha bo'yicha mutaxassis o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladi. Bunda jalb etiladigan o'qituvchilar davlat imtihoniga kiruvchi o'quvchilarga dars o'tmagan bo'lishi yoki boshqa kasbiy ta'lim tashkilotlaridan taklif etilishi lozim.

3-bob. Attestatsiyani o'tkazish tartibi

1-§. Attestatsiyani tashkil etish

19. Kasbiy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari ushbu Nizomga **ilovadagi** sxemaga muvofiq attestatsiyadan o'tkaziladi.

20. Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim darajasi bo'yicha tegishli ta'lim dasturlarida belgilangan talablarni bajargan bitiruvchi kasbiy ta'lim tashkiloti Pedagogik kengashining qaroriga asosan direktorning buyrug'i bilan attestatsiyaga qo'yiladi.

21. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari har yili 1-noyabrga qadar kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko'rgazmali-amaliy imtihonlari tashkil qilinadigan korxonalar (tashkilotlar) ro'yxatini shakllantirib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etadi.

22. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi har yili 1-dekabrga qadar attestatsiya o'tkaziladigan korxonalar (tashkilotlar) ro'yxatini shakllantiradi va tasdiqlaydi.

23. Kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilar attestatsiyasini o'tkazish yuzasidan kasb va mutaxassislikka mos korxonalar (tashkilotlar) bilan hamkorlik shartnomasini har yili 1-yanvarga qadar imzolaydi.

24. Attestatsiya boshlanishidan bir hafta oldin komissiya raisi kasbiy ta'lim tashkiloti direktori bilan birgalikda attestatsiyani o'tkazish uchun tayyorgarlik holatini nazoratdan o'tkazadi.

25. Attestatsiyada bitiruvchilarning ota-onalari hamda korxonalar (tashkilotlar) vakillari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Attestatsiya jarayonlari ota-onalar va kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga onlayn translyatsiya qilinadi.

26. Attestatsiya komissiyasi o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq attestatsiyani kasbiy ta'lim tashkilotidagi har bir kasb (mutaxassislik) bo'yicha o'tkazadi.

Attestatsiya komissiyasi attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malaka darajasini (kasbiy kompetensiyalarini) baholaydi hamda natijalarni e'lon qiladi.

27. Bitiruvchilar attestatsiyada "2" (qoniqarsiz) baho olgan taqdirda, tegishli imtihonni shu o'quv yilida bir marta qayta topshirish huquqiga ega bo'ladi.

Qayta topshirish jarayonlari asosiy attestatsiya tugaganidan so'ng o'quvchining arizasiga muvofiq bir oy ichida o'tkaziladi.

Attestatsiyadan ikkinchi marta ham o'ta olmagan yoki bir yil ichida attestatsiyani qayta topshirish uchun murojaat qilmagan bitiruvchiga attestatsiyani qayta topshirish uchun, shu jumladan, dual ta'lim shaklida ta'lim olgan bitiruvchiga uning arizasiga muvofiq Qoraqalpog'iston

Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari tomonidan ruxsat beriladi.

28. Attestatsiyani qayta topshirib, qoniqarsiz baho olib attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchi keyingi o'quv yili yakunida attestatsiyani qayta topshiradi. Bunda o'zi tamomlagan kasbiy ta'lim tashkilotida ta'lim olgan kasb (mutaxassislik) bo'yicha komissiya shakllanmagan bo'lsa, kasbi (mutaxassisligi) bo'yicha mos boshqa kasbiy ta'lim tashkilotlarida (dual ta'lim shaklidagi bitiruvchilar ham) attestatsiyani topshirishi mumkin.

Boshqa kasbiy ta'lim tashkiloti attestatsiyada ishtirok etadigan bitiruvchining ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlari attestatsiya o'tkaziladigan kasbiy ta'lim tashkilotiga taqdim etiladi.

Attestatsiyadan o'tgan bitiruvchiga komissiya tuzilgan ta'lim tashkiloti tomonidan kasbiy ta'lim to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi.

29. Kasbiy ta'lim tashkilotida belgilangan kasbning (mutaxassislikning) o'quv dasturlarini to'liq tugatgan, lekin attestatsiyada qatnashmagan yoki undan o'ta olmagan bitiruvchilar Pedagogik kengash qarori asosida komissiya faoliyatining uch yil muddat davomida yakuniy davlat attestatsiyasini qayta topshirish huquqiga ega.

Uch yil davomida attestatsiyadan o'tmagan shaxslar yakuniy kursni qaytadan o'qish uchun ariza topshirishlari mumkin.

30. Attestatsiyadan o'tgan bitiruvchilarga bir oy muddat ichida kasb (mutaxassislik) bo'yicha belgilangan tartibda kasbiy ta'lim to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi.

Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan guruhlarda attestatsiya jarayonlari xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etgan tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Xalqaro ta'lim dasturlari asosida ta'lim olgan va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilarga xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha diplom (sertifikat) hamda kasbiy ta'lim to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi.

31. Kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari quyidagi hollarda attestatsiyaga kiritilmaydi:

fanlardan akademik qarzdor hisoblanganda;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida tahsil olib, o'qish uchun belgilangan to'lovni to'liq amalga oshirilmaganda;

uzrsiz sabablarga ko'ra amaliyot o'tamagan yoki amaliyot uchun qoniqarsiz baho olganda.

32. Uzrli sabablarga ko'ra attestatsiyada ishtirok eta olmagan bitiruvchilarga komissiya faoliyati yakuniga qadar attestatsiyadan o'tishga ruxsat beriladi.

33. O'quv rejasida nazarda tutilgan fanlardan yakuniy baholarining kamida 86 foizi "5" (a'lo) va qolgan fanlardan "4" (yaxshi) bo'lgan, yakuniy attestatsiyadan "5" (a'lo) baholar olgan, xulq-atvori namunali, jamoat ishlarida faol ishtirok etgan o'quvchilarga imtiyozli diplom beriladi.

2-§. Davlat imtihonlarini o'tkazish

34. O'zbekiston tarixi fani va kasbiy fanlar bo'yicha kasblarning (mutaxassisliklarning) o'quv dasturlaridagi mavzular doirasida test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda test jarayonlari boshlanishidan ikki oy oldin ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida kasblarning (mutaxassisliklarning) tegishli kasbiy fanlari bo'yicha, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari qabul qilingan guruhlarda O'zbekiston tarixi fanidan davlat imtihoni test sinovlari shaklida o'tkaziladi.

35. Test sinovlari tashkil etilishi, xolis va adolatli o'tkazilishi hamda test topshiriqlarini oshkor etilmasligi uchun javobgarlik komissiya zimmasida bo'ladi.

36. Test topshiriqlari jami 72 ta savoldan iborat bo'lib, topshiriqlarni bajarish uchun 120 daqiqa, belgilangan javoblarni javoblar varaqasiga ko'chirish uchun qo'shimcha 10 daqiqa vaqt beriladi.

37. Test o'tkazish jarayoniga komissiya umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari va jamoat tashkilotlari vakillarini nazoratchi sifatida jalb qiladi.

38. Test sinovlari jarayonida bitiruvchilar tomonidan darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, matnlar, javoblar yozilgan varaqalar, mobil telefonlar va boshqa aloqa vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Test sinovlarini o'tkazish qoidalariga rioya qilmagan bitiruvchilar bu haqda dalolatnoma tuzgan holda test sinovlaridan chetlashtiriladi.

39. Test topshiriqlarini yakuniy baholashda komissiya to'g'ri bajarilgan topshiriqlarning 90 — 100 foizi uchun "5" baho (a'lo), 70 — 89,9 foizi uchun "4" baho (yaxshi), 60 — 69,9 foizi uchun "3" baho (qoniqarli), to'g'ri bajarilgan topshiriqlarning 60 foizidan past ko'rsatkichlari uchun "2" baho (qoniqarsiz) qo'yiladi.

40. Test sinovlari texnik imkoniyatlari bo'lgan kasbiy ta'lim tashkilotlarida kompyuter orqali maxsus axborot tizimlari yordamida tashkil etilishi mumkin. Bunda test topshiriqlari soni va ajratiladigan vaqt hamda baholash mezonlari ushbu Nizom talablari asosida tartibga solinadi.

3-§. Ko'rgazmali-amaliy imtihonni o'tkazish

41. Ko'rgazmali-amaliy imtihon orqali kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchilarining egallayotgan kvalifikatsiyasi bo'yicha kasbiy kompetensiyalarining shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

42. Ko'rgazmali-amaliy imtihon topshiriqlarining mazmuni kasblar (mutaxassisliklar) uchun belgilangan kasbiy kompetensiyalar, shuningdek, kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog'liq ko'rsatkichlar asosida belgilanadi.

43. Ko'rgazmali-amaliy imtihonlar tegishli korxonalarda (tashkilotlarda) maxsus tashkil etiladigan sinov maydonlarida (simulyatsion laboratoriyalarida) tashkil etilishi mumkin.

Bunda agar korxona (tashkilot) bir nechta bo'lsa yoki bir korxonada (tashkilotda) ko'rgazmali-amaliy imtihonlarni tashkil etish imkoniyati bo'lmasa, kasbiy ta'lim tashkilotlari tomonidan korxonalar (tashkilotlar) bilan kelishgan holda aniq korxona (tashkilot) belgilanadi.

44. Ko'rgazmali-amaliy imtihonlar shartlari va baholash mezonlari korxonalarning (tashkilotlarning) vakillarini jalb qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish instituti tomonidan attestatsiya boshlanishidan ikki oy oldin ishlab chiqiladi hamda tasdiqlanadi.

Bunda ko'rgazmali-amaliy imtihonlarning shartlari o'qitilayotgan kvalifikatsiya bo'yicha kasblarning (mutaxassisliklarning) tegishli o'quv dasturlari mazmuniga muvofiq tuziladi.

45. Ko'rgazmali-amaliy imtihon shartlarini bajarish muddati har bir kasblarning (mutaxassisliklarning) murakkabligi va xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi.

46. Ko'rgazmali-amaliy imtihonlarni o'tkazish uchun korxonalar (tashkilotlar) ish joylarini zarur jihozlar, o'lchov vositalari, texnik hujjatlar, xomashyo va materiallar bilan ta'minlaydi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan ko'rgazmali-amaliy imtihonlarda mazkur kasbiy ta'lim tashkiloti uchun ajratilgan xomashyo va yoqilg'i moylash materiallaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

47. Ko'rgazmali-amaliy imtihonlar boshlanishidan oldin komissiya a'zolaridan biri bitiruvchilarni imtihon shartlari, texnik shartlar, baholash mezonlari, vaqt me'yorlari va xavfsizlik qoidalarini bilan tanishtiradi.

Imtihon shartlarini bajarish jarayonida har bir bitiruvchi mustaqil ravishda amaliyotlar ketma-ketligini aniqlaydi.

48. Ko'rgazmali-amaliy imtihonlar bo'yicha baholash qaydnomasi komissiya tomonidan rasmiylashtiriladi.

49. O'zbekiston tarixi fani va kasbiy fanlardan test natijalari hamda ko'rgazmali-amaliy imtihonning baholash qaydnomasi asosida komissiya tomonidan bayonnoma rasmiylashtiriladi.

50. Ko'rgazmali-amaliy imtihonlarni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar kasbiy ta'lim tashkilotining tasdiqlangan xarajatlar smetasida ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar, shuningdek, kasbiy ta'lim tashkilotining to'lov-kontrakt hisobidan tushadigan mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

4-bob. Attestatsiyani baholash natijalari yuzasidan shikoyat qilish tartibi

51. Attestatsiyada olgan baholariga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun kasbiy ta'lim tashkiloti direktorining buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Mazkur buyruq bilan apellyatsiya komissiyasining tarkibi, ish tartibi va vakolatlari belgilanadi hamda bu haqda attestatsiya boshlanishidan kamida bir kun oldin bitiruvchilar xabardor qilinadi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda komissiya tarkibida ishtirok etgan komissiya a'zolari kiritilmaydi.

52. Attestatsiyada qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchi attestatsiya baholari e'lon qilinganidan keyin uch ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga yozma yoki elektron shaklda murojaat qilish huquqiga ega.

Apellyatsiya komissiyasi uch ish kunida ariza bergan bitiruvchining shikoyatini ko'rib chiqadi hamda natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- shikoyatni asosli deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish to'g'risida;
- shikoyatni asossiz deb hisoblash hamda uni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida.

Bitiruvchilar tomonidan boshqa kunlarda berilgan e'tiroz va shikoyatlar ko'rib chiqilmaydi.

Apellyatsiyani ko'rib chiqish natijasi bo'yicha bayonnoma apellyatsiya komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

Apellyatsiya komissiyasi qabul qilgan qarori nusxasini shu kunning o'zida bitiruvchiga taqdim qiladi.

53. Bitiruvchi apellyatsiyani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, apellyatsiya komissiyasi qarori yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

54. Komissiya raisi kasbiy ta'lim tashkiloti Pedagogik kengashiga tahliliy hisobot taqdim etadi.

55. Attestatsiya bo'yicha tuzilgan hisobotlar va materiallar kasbiy ta'lim tashkiloti arxivida 10 yil davomida saqlanadi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng mazkur materiallar hisobdan chiqariladi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

56. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Kasbiy ta'lim tashkilotlari
bitiruvchilarining yakuniy davlat
attestatsiyasini o'tkazish tartibi
to'g'risida **nizomga**
ILOVA

Kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish

SXEMASI			
Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Bitiruvchilarning ko‘rgazmali-amaliy imtihonlari tashkil qilinadigan korxonalar (tashkilotlar) ro‘yxatini shakllantirib, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etadi.	Har yili 1-noyabrga qadar
2-bosqich	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	Yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkaziladigan korxonalar (tashkilotlar) ro‘yxatini shakllantiradi va tasdiqlaydi.	Har yili 1-dekabrga qadar
3-bosqich	Kasbiy ta’lim tashkilotlari	Bitiruvchilarining attestatsiyasini o‘tkazish yuzasidan kasb va mutaxassislikka mos korxonalar (tashkilotlar) bilan hamkorlik shartnomasini imzolaydi.	Har yili 1-yanvarga qadar

4-bosqich	Professional ta'limni rivojlantirish instituti	1. O'zbekiston tarixi va kasbiy fanlar bo'yicha test topshiriqlar to'plamini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi. 2. Ko'rgazmali-amaliy imtihonlar topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi.	Attestatsiya boshlanishidan ikki oy oldin
5-bosqich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi	Attestatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlaydi.	Attestatsiya boshlanishidan bir oy oldin
6-bosqich	Attestatsiya komissiyasi	1. Attestatsiyani kasbiy ta'lim tashkilotidagi har bir kasb (mutaxassislik) bo'yicha o'tkazadi. 2. Bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malaka darajasini (kasbiy kompetensiyalarini) baholaydi hamda natijalarini e'lon qiladi.	O'quv jarayoni jadvaliga muvofiq Attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida
7-bosqich	Kasbiy ta'lim tashkilotlari	Attestatsiyadan o'tgan bitiruvchilarga kasb (mutaxassislik) bo'yicha belgilangan tartibda kasbiy ta'lim to'g'risidagi davlat namunasidagi diplom beriladi.	Bir oy muddat ichida

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.12.2024-y., 09/27/836/1036-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln

so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha

Kredit muddati: 2-48 oygacha

